O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 30 - avgust 504-8-117-Q/22 Termiz tuman hokimligi

Tumanda bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari faoliyatiga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6,25-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman Maktabgacha bo‘limining 2022-yil 8-avgustdagi 01-6/205-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limining 2022-yil 8-avgustdagi 01-6/205-sonli xati qanoatlantirilsin.

2. Tuman Xalq ta’limi bo‘limi (O‘.Xaqberdiyev)ga:

2021-2022- o‘quv yillarida tashkil etilgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari 1-ilovaga,

2022-2023- o‘quv yilida tashkil etiladigan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari 2-ilovada ko’rsatilgan ta’lim muassasalarida faoliyatni tashkil etishga ruxsat berilsin.

tashkil etiladigan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari uchun ajratigan xonalarda kelgusi yillarda ham faoliyat olib borishda maktabgacha ta’lim bo‘limiga ko‘maklashish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (M.Kenjayeva):

bolalarni ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarini moddiy-texnik vositalar va ta’lim-didaktik materiallar bilan jihozlash normativlariga asosan mebel, anjomlar, o‘quv-metodik, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar bilan ta’minlash;

tayyorlov guruhlarini malakali pedagoglar bilan ta’minlash va hududdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini biriktirish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Moliya bo‘limi (O‘.Ko‘chkinov) tumanda tashkil etilayotgan tayyorlov guruhlari sonidan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari yillik xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Nuriyev hamda tuman Makbagacha ta’lim bo‘limi mudiri M.Kenjayeva zimmalariga yuklatilsin.

Termiz tuman hokimi **Urinov.SH.B**

Termiz tuman hokimining
2022 yil 30 avgustdagi
504-8-117-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2021-2022 o’quv yilida Termiz tumanida tashkil etilgan majburiy bir yillik bepul tayyorlov guruhlari to‘g‘risida MA'LUMOT

№	Tuman nomi	Tashkil etiladigan manzil nomi	Biriktirilgan MTT soni	Tashkil etiladigan manzil (.M.F.Y nomi)	Ajratilgan xona soni	Jami tashkil etilgan guruhlar va ularga qamrab olinadigan bolalar soni		*Shundan;*			
								1-smena		2-smena	
						guruh soni	bola soni	guruh soni	bola soni	guruh soni	bola soni
1	Termiz tumani	4-MTT	4-MTT	Yangi xayot. M.F.Y	1	2	51	1	30	1	21
2	Termiz tumani	2-maktab	17-MTT	Halqabod M.F.Y	1	1	28	1	28		
3	Termiz tumani	10-maktab	3-MTT	Mustaqillik M.F.Y	1	2	55	1	30	1	25
4	Termiz tumani	12-maktab	14-MTT	Do‘stlik MFY	1	1	23	1	23		
5	Termiz tumani	15-maktab	11-MTT	Jo‘yjangal MFY	1	1	30	1	30		
6	Termiz tumani	16-maktab	8-MTT	Quyoshli yurt MFY	2	3	89	2	60	1	29
7	Termiz tumani	17-maktab	16-MTT	Amir Temur MFY	1	2	56	1	30	1	26
8	Termiz tumani	18-maktab	15-MTT	Gulbaxor MFY	1	1	27	1	27		
9	Termiz tumani	21-maktab	8-MTT	Amir Temur MFY	1	1	30	1	30		

10	Termiz tumani	25-maktab	6-MTT	Nurafshon MFY	1	2	60	1	30	1	30
11	Termiz tumani	28-maktab	18-MTT	Termiz MFY	1	1	22	1	22		
12	Termiz tumani	29-maktab	13-MTT	Soliobod MFY	1	2	54	1	30	1	24
13	Termiz tumani	32-maktab	1-MTT	Uchqizil MFY	1	1	25	1	25		
14	Termiz tumani	35-maktab	18-MTT	Termiz MFY	1	1	30	1	30		
15	Termiz tumani	36-maktab	7-MTT	Yangiyer MFY	1	2	55	1	30	1	25
16	Termiz tumani	Barkamol avlod bolalar maktabi	7-MTT	Qaxramon MFY	1	2	59	1	30	1	29
17	Termiz tumani	6-maktab	13-MTT	Soliobod MFY	1	2	48	1	24	1	24
18	Termiz tumani	23-maktab	2-MTT	Qoraxon MFY	1	1	30	1	30		
19	Termiz tumani	30-maktab	1-MTT	Bunyodkor MFY	1	1	30	1	30		
Termiz tumani JAMI					20	**29**	**802**	**20**	**569**	**9**	**233**

Termiz tuman hokimining
2022 yil 30 avgustdagi
504-8-117-Q/22-son qaroriga
2-ilova

2022-2023 o’quv yilida Termiz tumanida faoliyat yuritadigan majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari va ularga qamrab olinadigan bolalar soni to’g’risida

MA'LUMOT

№	Tuman nomi	Tashkil etiladigan manzil nomi	Biriktirilgan MTT soni	Tashkil etiladigan manzil (.M.F.Y nomi)	Ajratilgan xona soni	Jami tashkil etiladigan guruhlar va ularga qamrab olinadigan bolalar soni		*Shundan;*			
								1-smena		2-smena	
						guruh soni	bola soni	guruh soni	bola soni	guruh soni	bola soni
1	Termiz tumani	4-Maktab	1-MTT	Bunyodkor. M.F.Y	1	2	55	1	30	1	25
2	Termiz tumani	19-MTT	19-MTT	M.Eshtemirov M.F.Y	1	1	26	1	26		
3	Termiz tumani	8-maktab	19-MTT	Qo‘ng‘irot .M.F.Y	1	1	25	1	25		
Termiz tumani JAMI					3	**4**	**106**	**3**	**81**	**1**	**25**